

# **“QORAQALPOQBALIQSANOAT” VA “TIANDZIN TYaN SYaN” O'RTASIDA MEMORANDUI IMZOLANDI**

2018 yil 9 may. Xitoy Halq Respublikasi “Tiandzin Tyan Syan” kompaniyasi rahbari Miao Dzienfa va Kao Guangvin Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat safarida bo'lmoqda.

Safardan ko'zlangan asosiy maqsad 2017 yil 20 noyabr - 5 dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining baliqchilik sohasi bo'yicha Xitoy Halq Respublikasiga safari doirasida “Qoraqalpoqbalıqsanoat” MChJ rahbari A.J.Bekniyazov va “Tiandzin Tyan Syan” kompaniyasi direktori Miao Dzienfa bilan baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, yangi baliq turlarini etishtirish bo'yicha Tiandzin shahrida o'z-aro imzolangan memorandum doirasidagi belgilangan vazifalarni bajarishdir.

Ayni paytda mehmonlar Respublikamiz hududiga mos keladigan baliq turlarini tadqiqotlar orqali aniqlash, shuningdek, sun'iy baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha texnik rejani ishlab chiqish bo'yicha barcha tumanlardagi tabiiy va sun'iy ko'llarda o'rganishlar olib bormoqda. Safar davomida shuningdek, Tashkent agrar universiteti Nukus filialida “Tiandzin Tyan Syan” kompaniyasi mutaxassislari ishtirokida mazkur saho bo'yicha o'quv-seminar tashkil etiladi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

